


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 914,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **1,3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **737,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **157,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3 176,7** mlrd. so'mni (**9,2 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **145,1** mlrd. so'mni (**38,1 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, foizda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 914,3** mlrd. so'mni, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **98,7 %** ni tashkil etdi.



### ENG YUQORI ULUSH


Navoiy viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **39,2 %** ulush bilan **1 537,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,7 %** ulush bilan **26,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida faqatgina Navoiy shahrida o'sish sur'ati kuzatilib, qolgan barcha hududlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hisssasi **81,2 %** va yirik korxonalar hisssasi **18,8 %** ga to'g'ri keldi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik subyektlari	
		2019- yil yanvar-iyul
		2020- yil yanvar-iyul

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **3 176,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **9,2** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **81,2** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Uchquduq (99,9 %), Navbahor (99,7 %) Tomdi (99,4 %), Nurota (99,2 %), Qiziltepa (98,6 %), Xatirchi (97,4 %) Karmana (96,8 %), tumanlarida va Zarafshon (97,5 %) shahrida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida faqatgina Navoiy shahrida o'sish sur'ati kuzatilib, qolgan barcha hududlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. (Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Navoiy shahri (102,5 %), Karmana (99,2 %) va Konimex (97,2 %) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 914,3</b>	<b>98,7</b>	<b>737,6</b>	<b>157,1</b>	<b>3 176,7</b>	<b>90,8</b>
Navoiy sh.	1 537,0	102,5	687,3	154,8	849,7	80,4
Zarafshon sh.	326,4	93,7	8,2	153,8	318,2	92,7
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	631,4	99,2	20,3	13,1 m.	611,1	96,2
Konimex	101,0	97,2	3,5	6,3 m.	97,5	94,3
Qiziltepa	372,2	96,0	5,4	89,0	366,8	96,1
Navbahor	186,3	94,9	0,5	90,7	185,8	94,9
Nurota	155,9	95,5	1,2	69,7	154,7	95,8
Tomdi	26,8	94,7	0,2	104,8	26,6	94,6
Uchquduq	158,8	94,4	0,2	50,8	158,6	94,5
Xatirchi	418,5	96,4	10,8	116,9	407,7	95,9

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **57,1 %** ga o'sdi va **737,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **18,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 176,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **9,2 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **81,2 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uchquduq (99,9 %), Nabahor (99,7), Tomdi (99,4 %), Nurota (99,2 %) va Qiziltepa (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 18,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (44,7 %), Konimex (3,4 %) va Karmana (3,2 %), tumanlarida kuzatildi.



NAVOIY VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA  
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 910,7** ming so'm (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **3,1** % ga kamaydi) ni tashkil etdi. Jumladan, **Navoiy shahrida** (100,7 %) 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish kuzatildi va aksincha boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi **Navoiy shahri** (10 614,6 ming so'm) va **Karmana tumani** (5 006,8 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 910,7</b>	<b>96,9</b>
<b>Navoiy sh.</b>	10 614,6	100,7
<b>Zarafshon sh.</b>	3 876,6	92,0
<i>tumanlar:</i>		
<b>Karmana</b>	5 006,8	96,7
<b>Konimex</b>	2 829,4	95,5
<b>Qiziltepa</b>	2 445,3	94,4
<b>Navbahor</b>	1 644,3	93,2
<b>Nurota</b>	1 678,6	93,9
<b>Tomdi</b>	1 809,8	92,7
<b>Uchquduq</b>	4 258,4	93,9
<b>Xatirchi</b>	2 096,4	94,7

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **145,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **38,1** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **101,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **90,0** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **43,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **35,8** %) tashkil etdi.


### O'zgarish sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-iyul oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **101,6** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **43,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda  
\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>145,1</b>	<b>61,9</b>	<b>101,6</b>	<b>90,0</b>	<b>43,5</b>	<b>35,8</b>
Navoiy sh.	36,5	92,7	36,5	92,7	-	
Zarafshon sh.	7,1	79,5	7,1	79,5	-	
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	31,6	36,9	3,1	91,9	28,5	34,6
Konimex	4,4	56,4	2,6	97,3	1,8	35,0
Qiziltepa	15,5	63,8	10,7	91,9	4,8	37,7
Navbahor	1,1	73,6	1,1	73,6	-	
Nurota	5,4	55,0	3,1	91,1	2,3	36,0
Tomdi	1,6	69,7	1,6	69,7	-	
Uchquduq	2,4	71,7	2,4	71,7	-	
Xatirchi	39,5	77,2	33,4	92,0	6,1	41,0

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



1,0  
mlrd. so'm

Tuzlamalar



55,4  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



4,9  
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

11,3  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



2,5  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

0,9  
mlrd. so'm



Tuxum

9,7  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

2,8  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **101,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**55,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

1,6  
mlrd. so'm



Ziravorlar

8,8  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2,7  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2020- yilning yanvar-iyul oylarida Navoiy viloyatining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **43,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 35,1 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 7,9 mlrd. so'mni, otlar 0,4 mlrd. so'mni, parrandalar 0,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,9 %** ni tashkil etib, **75,5** mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **28,6 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **89,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘zgarish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>75,5</b>	<b>71,4</b>	<b>7,9</b>	<b>80,7</b>	<b>67,6</b>	<b>70,5</b>
Navoiy sh.	27,2	64,9	5,7	58,0	21,5	67,0
Zarafshon sh.	12,8	88,1	2,1	-	10,7	73,4
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	12,6	71,9	0,1	179,7	12,5	71,4
Konimex	1,6	73,7	-	-	1,6	73,7
Qiziltepa	6,4	72,4	-	-	6,4	72,4
Navbahor	2,5	71,5	-	-	2,5	71,5
Nurota	1,8	67,7	-	-	1,8	67,7
Tomdi	0,5	62,7	-	-	0,5	62,7
Uchquduq	3,0	70,0	-	-	3,0	70,0
Xatirchi	7,1	74,7	-	-	7,1	74,7

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019- yil  
yanvar-iyul



2020- yil  
yanvar-iyul



Nodavlat mulk

Davlat mulki

2019- yil yanvar-iyul oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **9,2 %** dan **7,2 %** ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **75,5** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati **71,4 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **70,1** mlrd. so'm nodavlat mulkka (92,8 %) hamda **5,4** mlrd. so'm (7,2 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Navoiy shahriga (19,7 %) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>75 507,9</b>	<b>100,0</b>	<b>70 105,8</b>	<b>92,8</b>	<b>5 402,1</b>	<b>7,2</b>
Navoiy sh.	27 163,8	36,0	21 812,3	80,3	5 351,5	19,7
Zarafshon sh.	12 815,0	17,0	12 815,0	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	12 678,2	16,8	12 627,6	99,6	50,6	0,4
Konimex	1 569,3	2,1	1 569,3	100,0	-	-
Qiziltepa	6 352,0	8,4	6 352,0	100,0	-	-
Navbahor	2 501,7	3,3	2 501,7	100,0	-	-
Nurota	1 787,0	2,4	1 787,0	100,0	-	-
Tomdi	535,7	0,7	535,7	100,0	-	-
Uchquduq	2 997,1	3,9	2 997,1	100,0	-	-
Xatirchi	7 108,1	9,4	7 108,1	100,0	-	-

## Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **886,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **39,5 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **311,7** mlrd. so'mni (**62,5 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **575,1** mlrd. so'mni (**9,1 %** ga kamayish) tashkil etdi.


## O'zgarish sur'atlari, foizda



## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



## Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur‘atlari Konimex (167,4 %), Navbahor (128,7 %) Karmana (101,1 %) tumanlarida qayd etildi.


**Ulgurji savdo tovar aylanmasining o‘zgarish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>886,8</b>	<b>60,5</b>	<b>311,7</b>	<b>37,5</b>	<b>575,1</b>	<b>90,9</b>
Navoiy sh.	509,7	47,6	287,3	34,6	222,4	92,5
Zarafshon sh.	16,0	91,4	-	-	16,0	91,4
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	180,7	101,1	5,0	-	175,7	98,3
Konimex	3,3	167,4	1,4	-	1,9	95,1
Qiziltepa	61,8	93,9	-	-	61,8	93,9
Navbahor	43,8	128,7	18,0	-	25,8	75,8
Nurota	17,9	89,8	-	-	17,9	89,8
Tomdi	1,5	79,8	-	-	1,5	79,8
Uchquduq	14,3	56,0	-	-	14,3	56,0
Xatirchi	37,8	79,1	-	-	37,8	80,2

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

NAVOIY VILOYATINING  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2020- yil yanvar-iyul



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
56,8	43,2	2019- yil yanvar-iyul
41,1	58,9	2020- yil yanvar-iyul



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **575,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **9,1** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **64,9** % ni tashkil etdi.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda ulgurji savdo tovar aylanmasi faqatgina Navoiy shahri va Karmana, Konimex va Navbahor tumanlarida yirik korxonalar tomonidan, qolgan 6 ta hududda esa asosan kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan.



Navoiy viloyatida so'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rne ko'payib bormoqda, hisobot davrida davlat sektorining jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,07 %** dan **0,12 %** ga ko'paygan. 2020- yilning yanvar-iyul oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **886,8** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **885,7** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **1,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulki faqatgina Karmana (0,6 %) tumanida saqlanib qolayotganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.